

BOSHLANG'ICH TA'LIM "ONA TILI" DARSLARINI TA'LIMIY O'YINLAR ASOSIDA TASHKIL ETISHGA OID YONDASHUVLAR

Xasanova Komila Toxirovna,

Buxoro Osiyo xalqaro universiteti 2-bosqich magistri

Annotatsiya: maqolada boshlang'ich ta'lim ona tili darslarida ta'limiy o'yinlardan foydalanishga doir yondashuv va tamoyillar bilan tanishib, ular asosida darslarni sifatli tashkil qilishga harakat qilinishi haqida ilmiy nazariy ma'lumot keltirilgan. Jumladan, nutqdan tilga qarab borish, tilni o'qitishda tabiiylikka rioya qilish tamoyillari haqida batafsilroq ma'lumot namunalar asosida yoritib berilgan.

Аннотация: в статье представлены научно-теоретические сведения о подходе и принципах использования обучающих игр на уроках родного языка в начальной школе, а также попытки организации занятий на их основе. В частности, на примерах дается более подробная информация о принципах перехода от речи к языку, соблюдении естественности при обучении языку.

Annotation: the article presents scientific and theoretical information about the approach and principles of using educational games in native language lessons in primary school, as well as attempts to organize classes based on them. In particular, examples provide more detailed information about the principles of the transition from speech to language and maintaining naturalness when teaching language.

Mamlakatimizda so'nggi yillar ichida ta'lim tizimidagi barcha bosqichlarni zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi. Ya'ni maktabgacha ta'lim muassasasidan tortib to oliy ta'lim muassasalaridagi ta'limgacha, barchasi zamonaviy talablar asosida tashkil etilishi borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: "Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni echish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi".[1.593] Boshlang'ich ta'limda Milliy o'quv dasturi asosida darsliklar hajmini ixchamlab, bolalarga tushunarli tarzda, zarur bo'lsa qismlarga bo'lib, rangdor rasimli, bolalarbop qilib chop etish, nazariy asoslangan matnlarning o'rniga turli xil qiziqarli mashq va topshiriqlar

asosida o'yinlar vositalari bilan bog'lanishi, didaktik talablarni o'zida aks ettirgan bo'lishi lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilari asosan tasavvur qilishi orqali fikr yuritadilar. Ya'ni qandaydir holat yoki narsa-hodisaning nomi keltirilganida ular tasavvurlarini ishga solishadi va aytilgan narsani tasavvur qilib ko'rishga harakat qilishadi. Shuning uchun ham ular ko'pincha o'ynash, jismoniy harakat qilishga intiladilar. Shu sababli yangi Milliy o'quv dasturi asosida o'tkaziladigan darslarimizda o'yin mashg'ulotlari tez-tez o'tkazilib turadi. Chunki, yosh bolaga berilayotgan bilimni o'yinlar orqali singdirsak, ular uchun quruq qoida yodlash va uzluksiz mashq ishlataverishdan qiziqroq tuyuladi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim muassasalaridan endigina maktab ostonasiga qadam qo'ygan 1-sinf o'quvchilarida bu yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Bunda to'g'ri tanlangan tashkiliy o'yinlar darsda har bir o'quvchining har tomonlama imkoniyatlarini beradi, madaniy hordiq chiqaradi. To'g'ri tanlangan degan tushunchani biz keng ma'noda olishimiz mumkin. Shu o'rinda o'z-o'zidan bizda savol tug'iladi. Xo'sh, o'yinlarimiz to'g'ri tanlangan degan xulosaga kelinishi uchun biz uni qaysi shartlar asosida tanlashimiz kerak? Avvalambor, tashkil qilinadigan o'yinlar bola yosh xususiyatlariga to'laqonli ravishda mos bo'lishi lozim. Bola yosh xususiyatlari deganda uning ham jismoniy, ham aqliy rivojlanishi jihatidan olamiz. Ikkinchidan, o'yinlarimiz kerakli paytda tashkil qilinishi lozim. Ya'ni bu dars bosqichlari bilan o'zaro aloqador.

O'yin bola hayotida muhim o'rin tutadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini barkamol va ilmiy insonlar etib tarbiyalashning muhim shakllaridan biri – bu ta'limiy o'yinlardir. Maktab sharoitida o'yinlarni tashkil qilish bolalarni yanada maktabga yaqinlashtiradi, ular o'zlarining sevimli mashg'uloti ya'ni o'yinlarda ishtirok etishdan katta zavq oladilar. Maktabga majburan emas, balki o'z xohishlari bilan keladigan bo'ladilar. Shu bilan birga, o'yin o'ynash orqali o'quvchilarda dars jarayonida hosil bo'lgan zerikish va toliqish holatlarining oldi olinadi. Bizga ma'lumki, ushbu yoshdagi bolalarning diqqati beqaror bo'ladi, tez-tez qaytariladigan o'yinlar ham ularning zerikishiga olib keladi. Shu sababli, turli xildagi qiziqarli o'yinlardan dars davomida foydalanish samarali natija beradi.

O'yin bu ijod, o'yin bu hayot demakdir. Darhaqiqat o'yin bola uchun yashash tarzi, asosiy faoliyat jarayonidir. O'yinlar jarayonida bolaning dunyoqarashi shakllanadi, u o'zini o'yin jarayonida kashf qilib boradi.

Shunday ekan, respublikamizda boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'z fikrini erkin bayon eta olish, milliy ruhni shakllantirish muhim vazifalardan biridir. Ushbu

vazifalarni amalga oshirish uchun dars jarayonida o‘yinlardan foydalanib, shu malaka va ko‘nikmalarni o‘yin yordamida shakllantirish samara beradi.

Ushbu maqolada ona tili darslarida ta‘limiy o‘yinlardan foydalanishga doir yondashuv va tamoyillar bilan tanishib o‘tamiz. Ona tili darslarida ta‘limiy o‘yinlar asosida tashkil etishda amal qilinadigan yondashuv va tamoyillarni belgilashda A.G‘ulomov, H.Ne‘matov, R.Safarova, Sh.Yusupova, X.Qurbonova, T.Ziyodova va boshqa metodist olimlarning, didaktika bo‘yicha esa M.I.Maxmutov, E.G‘oziyev, O.Roziqovlarning tadqiqot ishlari, monografiyalari, metodik qo‘llanmalari, ilmiy maqolalariga tayandik.

Til ta‘limi tamoyillari, avvalo, tilning o‘z tabiatiga bog‘liqdir. Til ta‘limi bo‘yicha bilimlarni o‘rganish jarayoniga nazar tashlaydigan bo‘lsak, uning manbai o‘zbek tilshunosligi fani hisoblanadi. Zotan, tildan beriladigan bilimlarning nazariy asoslari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, u bilan bog‘liq bo‘lgan qo‘shimcha malumotlar tilshunoslik fanida batafsil bayon etilgan. Ammo tilshunoslik fanida tilni qanday o‘qitish kerak, uni o‘qitishda nimalarga ahamiyat berish kerak, tildan o‘zlashtiriladigan bilimlarning hajmi va mundariyasi qanday bo‘lishi haqidagi masalalar o‘rganilmagan. Bular tilshunoslik fanining vazifasi ham emas. Bu savollar bilan boshqa soha, ona tili didaktikasi shug‘ullanadi. Til ta‘limi prinsiplari, avvalo, ona tilining o‘z xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanadi. Ona tili o‘qitishda umumdidaktik prinsiplar bilan birga, til ta‘limi tamoyillariga to‘liq rioya qilish mashg‘ulotlarning samaradorligini oshiradi. Endi bir qancha tamoyillar bilan tanishib o‘tamiz.

Nutqdan tilga qarab borish tamoyili. Bola o‘zini va o‘zgalarni, atrofdagi voqea-hodisalarni, narsa va hodisalarni til vositasida taniydi va o‘rganadi. Ular to‘g‘risidagi o‘z fikrini, hissiyot va kechinmalarini nutq vositasida yuzaga chiqaradi. Til va nutqning o‘zaro munosabati bolalar uchun ham, kattalar uchun ham umumiylik va xususiylik, imkoniyat va reallik o‘rtasidagi munosabatlar bog‘lanishlar shaklida amal qiladi. Til va nutq tushunchalarini farqlaydigan bo‘lsak, til umumiylikdir. Uning elementlari ongda bo‘ladi va har doim mavjud. Kerakli joyda va kerakli vaziyatda biz til vositalaridan istaganimizcha ishlatishimiz mumkin. Nutq xususiylikdir. U odamlarning o‘zaro munosabat, muloqot, bahslashuvlarida yuzaga chiqadi. Ya‘ni har bir insonning nutqi o‘ziga xos, o‘zgachadir. O‘tgan yilgacha maktablar tajribasida ona tili fanini o‘qitishni “ tildan nutqqa ” qarab borish qolipida tashkil etish an‘anaga aylangan. Ya‘ni umumiylikdan xususiylikka qarab o‘rgatish tamoyili. Shu qolipga ko‘ra oldin qoida, ta‘riflar tushuntiriladi, so‘ngra esa ularni mustahkamlash, nutqda

qo'llash ustida ishlashga o'tiladi. Bu ma'lum darajada o'quv-tarbiya jarayonida bolalarning ijodkorligiga monelik qiladi. Ya'ni o'quvchilarning shaxsiy nutqi rivojlanmay qoladi. Ma'lum darajada o'quvchilar o'z shaxsiy fikrlarini ifoda etish ko'nikmalaridan cheklanadi. Til va nutq hodisalari o'rtasidagi munosabatlarga asoslanib, ona tili o'qitishni "nutqdan tilga" qarab borish shaklida ham tashkil etish mumkin. Nutqdan tilga qarab borish shakli ilg'or, ijodkor o'qituvchilar faoliyatida uchraydi. Bu toifadagi o'qituvchilar oldin o'rganilayotgan mavzuga oid dalillar ustida bolalar faoliyatini tashkil etishadi. Ya'ni dastalb o'quvchilar fikri bilan tanishishadi va so'ngra, ularni birlashtirib qoida ko'rinishiga keltirishadi. Ular o'quvchilar faoliyatini olimlarning ijodiy izlanishlariga o'xshatib ishlashga o'rgatishadi. Buning uchun turli-tuman matnlarda til elementlari – nutq tovushlari, so'z, so'z birikmalari, obrazli iboralar, turli sintaktik qurilmalar ajratiladi, ular bilan o'quvchilarning ongi, binobarin, nutqi boyitiladi. Bu, o'z navbatida, o'quvchilar ijodkorligini ta'minlaydi. Lekin hozirgi Milliy o'quv dasturiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u asosida tashkil etilgan yangi, ona tili hamda o'qish fanlarini o'zida jamlagan "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsliklari turli xil qoidabozlikdan xoli holatda tuzilgan bo'lib, darslik mobaynida umuman qoidani uchratmaysiz. Milliy o'quv dasturini tashkil qilishning ham asosiy maqsadlaridan biri bu o'quvchilarda ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ma'lum bir mavzu doirasida mustaqil fikrlay olish qobiliyatini shakllantirish hisoblanadi. Til ta'limida tayyor matnlar ustida ishlash va matni shakllantirish ona tili o'qitishning yetakchi usuli bo'lmog'i shart. Bobomiz Alisher Navoiy o'zining "Lison ut-tayr" dostonida ta'kidlab o'tganidek,

"Istabon tashxisi xotir ustod, Nazm o'qiturkim ravon bo'lsun savod".

Xotiraning tashxisi, ya'ni jonlanishi, savodning ravonligi-yu barkamolligi, til chechanligi nazmiy va nasriy matnlar ustida ishlashga mutlaqo bog'liq.

Tilni o'qitishda tabiiylikka rioya qilish tamoyili quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi.

1. Boshlang'ich sinflarda til hodisalarini izohlashda o'quvchilar nutqidagi so'zlar va sintaktik qurilmalarni hisobga olish;
2. Boshlang'ich sinflarda til xususiyatlarini o'rgatishda ketma-ketlik va izchillik xususiyatlariga rioya qilish;
3. Til materillarini jonli nutq tarkibida o'rgatish. O'quvchi nutq tovushi, so'z va sintaktik konstruksiyalarni ko'rgazma qurol yordamida qancha to'g'ri, ongli tushunsa, uni nutq tarkibida ham shuncha to'g'ri, ongli tushunadi. Inson nutqi o'ziga

xos “obrazli ko‘rgazma” bo‘lib, u tabiat va jamiyatda obyektiv mavjud bo‘lgan narsalarning ongimizdagi in‘ikosini reallashtirish, o‘zgalarga tushunarli bo‘lishini ta‘minlash uchun xizmat qiladi. Til hodisalari jonli nutq tarkibida izohlansa, bolalar uni ongli o‘zlashtiradi.

2022-yilda tajriba-sinov tariqasida joriy qilingan va hozirda ham amalda bo‘lgan Milliy o‘quv dasturiga muvofiq “ona tili” darsligi yangi “ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligi bilan almashdi va bunda oldingi tizimdagi o‘qish darsligi ham hamohang tarzda yaratildi. Milliy o‘quv dasturining asosiy maqsadi o‘quvchilarning nutqini shakllantirish va oldingi tizimdagi qoidalardan chetlashgan holda ko‘proq ularni amaliyotga tatbiq qilish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Umuman olganda ona tili darslari quyidagi bilimlarni o‘quvchi yetkazishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

1) grammatikaga oid o‘zlashtiriladigan bilimlar; fonetika, morfologiya, sintaksis, leksikologiya, so‘z tarkibi, so‘z yasalishi, yozuv va imlo, nutq uslublari, uslubiyatga oid tushunchalarni o‘zlashtirish va ularni amaliyotga tatbiq qilgan holda mustahkamlash ;

2) nutqni o‘stirish:

—birinchidan, o‘quvchilarning so‘z boyligini rivojlantirish;

— ikkinchidan, o‘zbek adabiy tili me‘yorlarini o‘rgatish, adabiy talaffuz me‘yorlari, uchinchi yo‘nalish o‘quvchilarda fikrni og‘zaki va yozma bog‘lanishli bayon qilish malaka hamda ko‘nikmalarini hosil qilish shart qilib belgilangan. Ana shundan kelib chiqib, ona tili ta‘limining asosiy maqsadi: ona tili mashg‘ulotlari o‘quvchilarda ijodiylik, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishdan iborat. Hozirda mazkur murakkab, mas‘uliyatli vazifani bajarishda ona tili va o‘qish savodxonligi darsliklarining ahamiyati muhim.

O‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladigan o‘quv topshiriqlari ham aynan shu darsliklardan o‘rin olgan. Mazkur topshiriqlar turli usullar bilan o‘qituvchi hamkorligida o‘quvchilar tomonidan mustaqil bajarishi lozim. Ushbu jarayonda ko‘pincha ijobiy natija beradigan topshiriqlarning asosiy turlaridan biri grammatik o‘yin- topshiriqlardir. Bu turdagi topshiriqlar o‘quvchilardan zukkolikni, bilimdonlikni, izlanishni, topqirlikni va tezkorlikni talab qiladi. Ona tili darslarining qiziqarli va samarali o‘tishida o‘yin-topshiriqlarning ahamiyati nihoyatda katta. Ta‘limiy o‘yinlarga xos bo‘lgan asosiy jihat shundan iboratki, u ko‘pincha musobaqa tarzida tashkil etiladi. Natija yakunida, o‘quvchi va guruhlarga rag‘bat yoki ballar berilishi, shubhasiz, o‘quvchilarda topshiriqni

bajarishga ishtiyoqni oshirishga sabab bo‘ladi. Odatda o‘quvchilar bajargan ishi uchun rag‘batlantirilishi lozim, sababi bu jarayon darsda o‘quvchilarning doimo faolligini ta‘minlaydi. Natijada, o‘quvchilarning grammatik savodxonligi, ijodiy fikrlash qobiliyati, topqirligi, nutqi va shu fanga muhabbati ancha oshadi. Shu bilan bir qatorda, shu fanga oid qo‘shimcha adabiyotlardan foydalanish, boshqa fanlar bilan ham jiddiy shug‘ullanish ehtiyojini tug‘diradi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, o‘qituvchi darslarining samarali va qiziqarli bo‘lishi uchun turli ta‘limiy o‘yinlar va boshqotirmalardan unumli foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Bugungi davr talabi ham, fan o‘qituvchisidan mahorat, ijodkorlik, izlanish va eng asosiysi, tinimsiz mehnat talab qiladi. Shularni hisobga olgan, holda ona tili va o‘qish savodxonligi darslarini o‘tishda ishlatish mumkin bo‘lgan ayrim grammatik o‘yinlar, boshqotirmalar va ulardan foydalanish metodlarini ko‘rib chiqamiz. Bunday grammatik o‘yinlarni har bir pedagog o‘qituvchi o‘zi uchun yanada ko‘plab o‘ylab topishi va ulardan dars jarayonida foydalanishi mumkin. Bu esa, yuqorida ta‘kidlanganidek, o‘qituvchining ijodkorligiga, izlanuvchanligiga, mahorati va tinimsiz qiladigan mehnatiga bog‘liq.

Bu jarayon ham, albatta, osondan murakkabga qarab bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim.

Ta‘limiy o‘yin asosida tashkil qilingan darslar albatta, an‘anaviy tarzda tashkil qilingan darslardan farq qiladi. Ta‘limiy o‘yinlar asosida tashkil qilingan darslar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqilligi va o‘quv fani faoliyatini ta‘qiqlamasdan berilgan maqsadga yetish uchun yordam beradi. Bu jarayonda o‘quvchilar boshqa darslarga nisbatan ancha faol, erkin va o‘z fikrlarini bemalol yetkazib bera oladilar. Ma‘lumki 1-sinfga qabul qilinib, maktab ostonasida ilk qadam qo‘ygan bolaning faoliyatida o‘yin asosiy o‘rinni egallaydi. O‘yin ularning eng sevimli mashg‘uloti bo‘lib, ular har qanday mashg‘ulotni o‘yin bilan uyg‘unlashtirishga harakat qiladilar. Shunday ekan o‘qituvchi o‘quvchi faoliyatidan ularning sevimli mashg‘uloti - o‘yinni siqib chiqarmasdan, undan maqsadga muvofiq foydalanish bilan ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta‘limining davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli qarori. 6-aprel 2017-yil

2. Mirziyoyev Sh.M. “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”. – 28.01.2022 yildagi PF-60-son
3. Bobomurodova A.Y. O‘qish ta‘limi jarayonida o‘yin-topshiriqlardan foydalanish. Ped. fanl. nomz. ilm. daraj. olish uchun yozilgan dissertatsiya.
4. Boshlang‘ich ta‘lim. Umumiy o‘rta ta‘limning Davlat Ta‘lim Standartlari va o‘quv dasturi. Ta‘lim taraqqiyoti. O‘zR Xalq Ta‘limi Vazirligi axborotnomasi, 7-maxsus son. Toshkent: Sharq, 1999,-b. 479.
5. Bektoshev Sh. Ona tili darslarida o‘yin usulidan foydalanish.// Til va adabiyot ta‘limi.–Toshkent, 1993.
6. Aminova S. Ona tili darslarida noan‘anaviy usullar. // Til va adabiyot ta‘limi.–Toshkent, 1995.
7. Hamroyev A. Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta‘limini ijodiy tashkil etish.// “Pedagogik mahorat” jurnali. 2002-yil, 1- son, 53-55 b.
8. Hamroyev A. Ona tili darslaridagi ijodiy topshiriqlarning tiplari. // “Pedagogik mahorat” jurnali. 2002-yil, 3- son, 45-48 b.
9. Ziyodova T.U. Ona tili ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish. Ped. fan. nomz. ... yozilgan diss. – Toshkent, 1996.